ERTAKLARDA SINOV MOTIVI

Umurzakova Malikaxon Mirzaulugbekovna,
"University of economics and pedagogy" NOTM
O'zbek va rus tili kafedrasi assistenti.
Umurzakova.M.@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.20524193

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ertaklarda uchraydigan sinov motivining badiiy va g'oyaviy xususiyatlari tahlil qilinadi. Xalq ertaklarida qahramonlarning turli sinovlardan o'tishi orqali ularning jasorati, aql-zakovati, sabr-toqati hamda ma'naviy kamoloti namoyon bo'lishi yoritiladi. Shuningdek, sinov motivining syujet rivojidagi o'rni, ezgulik va yovuzlik kurashini ifodalashdagi ahamiyati misollar asosida ochib beriladi. Ertaklarda sinov motivi xalqning hayotiy qarashlari, orzu-intilishlari va axloqiy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim poetik unsur sifatida baholanadi.*

Kalit so'zlar. *Ertak, sinov motivi, folklor, xalq og'zaki ijodi, qahramon obrazi, syujet, badiiy talqin, ezgulik va yovuzlik, ma'naviy kamolot.*

Аннотация. *В данной статье анализируются художественно-идеологические особенности мотива испытания, встречающегося в сказках. В народных сказках храбрость, ум, терпение и духовная зрелость героев раскрываются через прохождение ими различных испытаний. Также на примерах раскрывается роль мотива испытания в развитии сюжета и его важность в выражении борьбы добра и зла. В сказках мотив испытания оценивается как важный поэтический элемент, отражающий жизненные взгляды, стремления и моральные ценности людей.*

Ключевые слова. *Сказка, мотив испытания, фольклор, устный фольклор, образ героя, сюжет, художественная интерпретация, добро и зло, духовная зрелость.*

Abstract. *This article analyzes the artistic and ideological characteristics of the test motif found in fairy tales. In folk tales, the heroes' courage, intelligence, patience, and spiritual maturity are revealed through their passing through various tests. Also, the role of the test motif in the development of the plot and its importance in expressing the struggle between good and evil are revealed on the basis of examples. In fairy tales, the test motif is evaluated as an important poetic element reflecting the people's life views, aspirations, and moral values.*

Keywords*. Fairy tale, test motif, folklore, oral folklore, hero image, plot, artistic interpretation, goodness and evil, spiritual maturity.*

Kirish. Ertak terminini O'zbekistondagi hamma viloyatlar aholisi juda yaxshi bilsa-da, bu janrga oid asarlar turlicha hududlarda turlicha atalgan. Xususan, toshkentliklar «cho'pchak», farg'onaliklar «matal», xorazmliklar «varsaqi», o'zbek va tojik tilida so'zlashuvchi vatandoshlarimiz «ushuk» tarzda atashgan. Bulardan tashqari jonli so'zlashuvda ba'zan afsona, o'tirik, tutal atamalari ham uchraydi. Hatto hazrat Alisher Navoiy ham g'azallaridan birida «cho'pchak» so'zini qo'llaganlar:

Xalq ertaklarimizning badiiy ijod namunasi sifatidagi janr xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Ertaklar xalq og'zaki ijodining epik jinsi (turi)ga mansub.

3. Ertaklar, asosan, nasrda yaratiladi. Faqat ayrim asarlardagina («Yoriltosh», «Tohir va Zuhra» va b.) qo‘shiqni eslatuvchi she'riy parchalar uchraydi.

4. «Bir bor ekan, bir yo‘q ekan» boshlamasi va «murod-maqsadiga yetibdi» yakunlanmasi ertaklarning an'anaviy belgisi hisoblanadi.

5. Xayoliy-fantastik tasvir ertaklar syujetida qo‘llanadigan ustuvor usuldir.

Adabiyotlar tahlili. Ertaklarning juda qadim zamonlardan yaratilganini “Ertak” atamasining Mahmud Koshg‘ariy tomonidan 1074-yilda yozilgan “Devonu lug‘oti-t-turk” asarida “etuk” tarzda qo‘llanganidan bilsa bo‘ladi: “Etuk – hikoya, ertak; biror maqsadni shohga bildirish, hikoya qilish uchun ham bu so‘z qo‘llanadi. Asli bir narsani hikoya qilishdan olingan”[2.B.98].

O‘zbek folklorshunosligi rivojiga munosib hissa qo‘shgan Mansur Afzalov o‘zbek xalq ertaklari yuzasidan ilmiy ish yozar ekan, bu janrning o‘rganilishi tarixiga alohida to‘xtagan. Olimning ma'lumot berishicha, o‘zbek ertaklariga bo‘lgan ilmiy e'tibor XIX asr ikkinchi yarmidan boshlangan. Bu o‘rinda A.A.Kushakevich, N.Lapunova, A.Vasilyev, A.N.Samoylovich, V.V.Bartold kabi bir qator ziyoli va taniqli olimlar ismlari keltirilgan. Shuningdek, “Farhod va Shirin”, “Shirin qiz”, “Samarqand”, “Shahzoda Nazar Muhammad va Malika Nazarbibi”, “Erni er qilgan xotin”, “Donishmand cho‘pon” kabi afsona va ertaklar matnlarining yozib olinishi, dastlabki tatqiq qilish jarayoni haqida ma'lumotlar qayd etilgan [1.B.14-19]. O‘zbek ertaklari o‘z vaqtida Miyon Buzruk Solihov, Hodi Zarifov, Xomid Rasul, Buyuk Karimov kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Keyinchalik bu faoliyatni K.Imomov, T.G‘oziboyev, G‘.Jalolov, X.Egamov, H.Razzoqov, J.Yusupov kabi olimlar davom ettirishdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ertaklar mehnatkash xalqning alamli o‘tmishini, dunyoqarashi, voqelikka munosabati, ideallari, orzu-umidlari va baxtiyor hayotga bo‘lgan intilishlarini ifoda etadi. Ertaklarning ko‘pchiligidagi o‘zaro ziddiyat sinov motivlarida ravshan ko‘rinadi.

O‘zbek xalq ertaklarida sinov motivlari ko‘zga yaqqol tashlanadi. Ayrim ertaklar jumboq yoki topishmoq epizodisiz o‘z mazmunini yo‘qotadi. Bunday ertaklarda sinov topishmog‘i yoki sinov jumbog‘ini yechish masalasi shu ertaklarning asosini tashkil etib, syujet ana shu masala asosida yuzaga keladi va jumboq yoki sinovning yechilishiga qaratilgan bo‘ladi. Ertaklarda bu holdagi motivlar qadim zamonlardagi urf-odatlar zaminida yuzaga kelgan. Ertaklarda sinov motivi musobaqa va topishmoq shaklida namoyon bo‘ladi Ertak qahramonining jismoniy ma’naviy sifatlari musobaqa sinovi orqali, zakovati va fahm-farosati topishmoqli sinov orqali aniqlanadi.

Tahlillar va natijalar. Musobaqa sinovlari xayoliy ertaklarda ko‘proq uchraydi. Hayotiy-satirik ertaklarda esa topishmoqli sinov qo‘llanib, u ikki shaxs o‘rtasidagi dialog sifatida vujudga keladi. Mazkur sinovlar “Dono qiz”, “Zarkokilli yigit”, “Ayoz”,

“Gulfaroh” kabi bir qancha satirik ertaklarda yorqin namoyon bo‘ladi.

Satirik xarakterga ega bo‘lgan ertaklardagi sinov motnvining o‘ziga xos vazifasi, birinchidan, bo‘lajak taxt egasini aniqlash, ikkinchidan va asosan, ijtimoiy hayot kamchiliklarini, o‘tgan davrlarning qonunqoidalarini fosh etib tashlashdan iboratdir. Sinov topishmog‘innng bu ikkinchi vazifasi satirik va yumoristik ertaklarning eng muhim belgisini ifodalaydi.

Ma’lumki, maqsad bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalarni vujudga keltiradi. Shunday ekan, “Dono qiz” satirik ertagidagi topishmoqli sinovning maqsadi qizdagi xarakterni belgilash, vazifasi esa, uning donoligini isbotlashdan iboratdir.

Masalan, ertakda shoh bo‘lajak qaylig‘iga quyidagn topishmoqli savollarni beradi: 1. “Shirindan shirin nima?” 2. “Achchiqdan achchiq nima?” 3. “Ho‘kizni bolalatib ber” Bu savollarga qiz quyidagicha javob qaytarib: 1. “Shirindan shirin – bola shirin”. 2. “Achchiqdan achchiq – o‘lim achchiq”. 3. “Dadam hammomga tuqqani ketgan, kelsa javobini aytaman”, - deydi.

O‘rni kelganda shuni aytish kerakki, topishmoqli sinovning uchinchisi uzoq o‘tmishda qandaydir narsaning ko‘chma ma’nosini ifodalagan bo‘lishi mumkin, keyinchalik esa u narsa hayotda o‘z zaruriyatini yo‘qotgach, boshqa mazmunni — yumorni kasb etgan. Bu topishmoqli sinov qizdagi zakovatni ulug‘laydi. Ba’zi bir ertaklardagi jumboqlar umuman yechilishi mumkin bo‘lmagan masala bo‘lib, ular o‘z ma’nosini anglatmay, balki ko‘chma ma’noda zolim shohning adolatsiz ekanligini bildiradi. “Bajarib bo‘lmaydigan buyruq” ertagi bunga misol bo‘la oladi. Shoh ustaning oldiga shunday masalani qo‘yadi. “Bir imorat qurasan, imorat shunday bo‘lsinki, tepasi osmonga, tagi yerga tegmasin”. Bu jumboq fantastic xarakterga ega bo‘lsa ham, ertakda hayotiy masalani hal etishga bo‘ysundirilgan. Usta jumboqni shunday yechadi: “Siz ham ishlaydigan joyimga suyuq osh olib borish uchun qovoqqa o‘xshagan savat to‘qitib bering”. Bu xildagi jumboq va uning yechimi komik mazmunni ifodalaydi.

Har bir ertakda xalqning podshohlarga nisbatan ikki xil munosabati sezilib turadi. “Kambag‘al qiz”, “Malikai Husnobod”, “Ur to‘qmoq” kabi xayoliy ertaklarning sinov motivlarida xalqning adolatsiz hukmronni qoralash yoki adolatli shohni orzu qilish tuyg‘ulari sezilib turadi.Satirik va yumoristik ertaklarning sinov motivlarida esa shoh faqat adolatsiz hukmron sifatida talqin etiladi, Bu – keng mehnatkash omma ongidagi adolatli va adolatsiz shohlar haqidagi tushunchaning takomilidan darak beradi. Shuning uchun ham o‘zbek satirik ertaklarida ezuvchilar bilan eziluvchilar sinfi o‘rtasidagi ziddiyat o‘tkir tus olgan.

Adolatli va adolatsiz shoh haqidagi xalq tushunchasining tadrijiy takomili “Uch og‘a-ini botirlar” ertagining topishmoqli sinov epizodlarida aniq namoyon bo‘ladi. Ertakda asosiy konfliktni tashkil etgan epizod sinov motivi bo‘lib, bu sinov

botirlarning o‘zaro suhbatga kirishishlari bilan yechiladi. “To‘ng‘ich botir: “Shu go‘sht qo‘zining go‘shti ekan, biroq qo‘zi it emib katta bo‘lgan ekan”. O‘rtancha botir; “To‘g‘ri aytasiz, podsho degan itning go‘shtidan ham qaytmaydi”. O‘rtancha botir o‘z javobida “podsho” so‘ziga urg‘u beradi. Bu urg‘u umuman podshohlar degan ma’noni bildirib ular xalq mulkini doimo talab kelgan yovuz zolim. O‘rtancha botirning bu nutqi umuman podshohlar ustidan chiqarilgan xalq hukmi bo‘lib eshitiladi. O‘rtancha botir o‘z so‘zini tasdiqlash uchun: “Men ham bir narsaga hayron bo‘lib turibman, Shu shinnidan odamning isi keladi” – deb podshohning kimligini aytmoqchi bo‘lganida uning fikrini kenja botir to‘ldirib tasdiqlaydi. “To‘g‘ridir, podshohlik — qonxo‘rlik demakdir. Qon qo‘shilgan bo‘lishi ehtimoldan uzoq emas; lekin yomonning qoni bo‘lsa-ku, mayli, begunohning qoni to‘kilgan bo‘lmasin”. Polshohlar qonxo‘rlik. zolimlik, adolatsizlikda ayblanar ekanlar, bu aybnoma marhamatli podshohlarga ham taalluqli ekanligi keyingi epizodlarda yana ham oydinlashadi.

“Podshohlik – qonxo‘rlikdir” degan xalq aybnomasi ertakchi tomonidan juda ixcham va chiroyli kichik bir shtrix orqali isbotlanadi.

Kenja botir: “Dasturxondagi nonni taxlagan odamning otasi nonvoy ekan”,— deydi. Haqiqatan ham nonni podshoh taxlagan edi. Xulosa, shoh nonvoy oilasidan chiqqan, shunday ekan, u xalq fikricha, adolatli bo‘lishi kerak edi. Lekin unday bo‘lib chiqmaydi, u – zolim, hasadchi, qizg‘anchiq, molparast va shuhratparast. Podshohning bunday xislatlari kenja botirni sababsiz zindonga tashlanishida isbotlanadi.

Bu ertakdagi sinov motivlarida xayoliy ertaklardagidek podshohni adolatli bo‘lishga chaqirish sezilmaydi, chunki undagi o‘tkir satira umuman podshohlik tuzumiga qarshi qaratilgandir. Podshoh kenja botirning qolishini va taxtiga voris bo‘lishini so‘rab, yana bir sinaydi. Shunda kenja botir: “Bizlar podshoh bolasi emasmiz, otamiz boy ham emas, sizning davlatingiz podshohlik bilan topilgan, biz qo‘l kuchi bilan tarbiya qilingan, elimiz bir bo‘lsa ham, tarbiyamiz boshqa”, - deb podshohning valiahdi bo‘lishidan voz kechadi.

“O‘g‘ri” ertagida konflikt paydo bo‘lishdanoq, an’anaviy topnshmoqli sinov savollari ishga tushadi. Qizig‘i shu yerdaki, bu ertakda xalq shohni sinab ko‘radi. Sinov savollari shohdagi salbiy xarakterlarni xalq oldida namoyish qila boshlaydi. Shoh bilan o‘g‘ri, shoh bilan usta, bordonchi, shoh bilan pakana o‘rtasidagi sinov mazmunli dialoglar, birinchidan, hukmdorning farosatsizligini isbotlovchi vosita bo‘lsa, ikkinchidan, u kishida kulgi (satira)ning yuzaga kelishi uchun turtki beradi. Xalq oldida masxara bo‘layotgan shoh osilayotgan o‘g‘ridan: “Nega buncha tiqilinch qilasan?” deb so‘raydi. O‘g‘ri shohni yana bir sinab ko‘rmoqchi bo‘lib: “Taqsir, hozir jannatning podshohi o‘ldi, meni tezroq o‘ldirsalar, bitta-yarimta odam podshoh bo‘lib qolmasdan, ildamroq borib, jannatga podshoh bo‘laman Jannatning podshohi o‘layotganda, “kim endi o‘lib, ilgariroq jannatga kelsa, o‘sha odamni podshoh qilinglar!” debdi. Shuning uchun qistayapman, qani tez

bo‘linglar!” desa, shoh “u dunyoga ham o‘zim podshoh bo‘lay”, deb o‘ylab: “O‘g‘rini dordan bo‘shatib, dorga meni osinglar,” – deydi. Shoh o‘g‘rining uydirma gaplariga ishonadi Xalq bu sinov orqali shohning o‘taketgan ahmoqligini ko‘rsatadi, mamlakat taqdiri ana shunday befarosatlarning qo‘lida ekanligiga achinadi.

Xulosa. Xalq ertaklari mazmunida ijtimoiy, iqtisodiy, maishiy hayotning hamma masalalari o‘z ifodasini topadi, desak xato bo‘lmaydi. Shuning uchun ham yer yuzining hamma mintaqalarida yashaydigan xalqlarda umumiy hayot tarzi yaqin bo‘lgani sabab bir xil mazmundagi ertaklar ko‘p uchraydi. Fransuz, ingliz, xitoy, yapon ertaklari aksariyat hollarda o‘zbeklar ijodidagi bu janrdagi asarlar mazmunini takrorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Afzalov M. O‘zbek xalq ertaklari haqida. - T.: Fan, 1964. – B. 14-19.
2. Mahmud Koshg‘ariy. Turkiy so‘zlar lug‘ati (Devonu lug‘otit turk). III tomlik. I -tom. – T.: Fan, 1960. – B. 98